



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмурадовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILIY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	
IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	283
Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi	
DAVLAT BUDJETIDA SOLIQ TUSHUMLARI O'ZGARISHINING EKONOMETRIK TADQIQOTI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	288
Suvanova Muxlisa Umar qizi	
ENERGETIKA RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	292
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
ENERGETIKA INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUD IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	297
Sadullayev Axmadjon Ikrom o'g'li	



TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRINI BOJXONA NAZORATI MAQSADLARIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	303
Kilichov Nazar Bafojevich	
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	310
Botirov Lazizbek Botirovich	
KATTA MA'LUMOTLAR ASOSIDA TURISTIK XIZMATLARGA BO'LGAN TALABNI PROGNOZLASHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	314
Temirov Elyor Iskandarovich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI SAMARADORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI.....	322
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIGA AJRATILAYOTGAN BANK KREDITLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	328
Alijonov Ilyosbek Alijonovich	
THE ECONOMIC CHARACTERISTICS OF NON-PERFORMING LOANS AND THEIR IMPLICATIONS FOR BANK OPERATIONAL EFFICIENCY	334
Rustamov Jonibek Ravshanbek o'g'li	
IKTISODIY TARMOQLAR RIVOJIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION KREDITLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	341
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
TASHQI SAVDONI BOZOR NAZARIYASI ASOSIDA MINTAQANING BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI	346
Dilnoza Ochilova Ismoil qizi	



TASHQI SAVDONI BOZOR NAZARIYASI ASOSIDA MINTAQANING BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI

Dilnoza Ochilova Ismoil qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi

E-mail: dilnoz_noz@bk.ru

ORCID: 0009-0006-3892-9044

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola 2020–2025-yillar oralig'ida tashqi savdoning bozor nazariyalari asosida mintaqaviy barqaror rivojlanishga ta'siri va uning asosiy omillarini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda tashqi savdo aylanmasining iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'siri, eksport va import tarkibidagi o'zgarishlar hamda mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning barqarorlik ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. 2020-yildagi global pandemiya inqirozidan so'ng iqtisodiyotning tiklanish davri va 2025-yilga kelib O'zbekiston tashqi savdo hajmining 81,2 milliard dollarga yetishi kabi muhim ko'rsatkichlar tahliliy asos sifatida olindi. Maqolada klassik va zamonaviy savdo nazariyalari prizmasi orqali mintaqaviy rivojlanishning institutsional va tarkibiy omillari yoritiladi. Shuningdek, xalqaro savdo yo'laklarini diversifikatsiya qilish, xizmatlar eksportini oshirish va sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish strategiyalari ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni liberallashtirish va xalqaro bozor mexanizmlaridan samarali foydalanish mintaqaning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: tashqi savdo, bozor nazariyasi, mintaqaviy rivojlanish, barqarorlik, eksport salohiyati, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston, global bozor, investitsiya, diversifikatsiya.

Аннотация. Настоящая научная статья посвящена исследованию влияния внешней торговли на устойчивое региональное развитие на основе рыночных теорий в период 2020–2025 годов, а также анализу основных факторов этого влияния. В исследовании рассматриваются влияние внешнеторгового оборота на темпы экономического роста, изменения в структуре экспорта и импорта, а также взаимосвязь региональной экономической интеграции с показателями устойчивого развития. В качестве аналитической базы использованы данные о восстановлении экономики после глобального пандемического кризиса 2020 года и достижении объема внешней торговли Узбекистана в размере 81,2 млрд долларов США к 2025 году. Через призму классических и современных теорий международной торговли раскрываются институциональные и структурные факторы регионального развития. Кроме того, предлагаются стратегии достижения устойчивого развития путем диверсификации международных торговых коридоров, расширения экспорта услуг и повышения конкурентоспособности промышленной продукции. Результаты исследования показывают, что либерализация внешней торговли и эффективное использование механизмов международного рынка играют решающую роль в обеспечении макроэкономической устойчивости региона.

Ключевые слова: внешняя торговля, рыночная теория, региональное развитие, устойчивость, экспортный потенциал, экономический рост, Узбекистан, мировой рынок, инвестиции, диверсификация.

Abstract. This scientific article examines the impact of foreign trade on sustainable regional development through the perspective of market theories during the period 2020–2025 and analyzes its key determinants. The study investigates the influence of foreign trade turnover on economic growth rates, changes in the composition of exports and imports, and the relationship between regional economic integration and sustainable development indicators. The post-pandemic economic recovery following the 2020 global crisis and the increase in Uzbekistan's foreign trade volume to **USD 81.2 billion** by 2025 serve as the analytical foundation of the research. The paper explores the institutional and structural determinants of regional development through the lens of classical and modern trade theories. It also proposes strategies for achieving sustainable development by diversifying international trade corridors, expanding service exports, and enhancing the competitiveness of industrial products. The findings indicate that trade liberalization and the effective use of international market mechanisms play a decisive role in ensuring the macroeconomic stability of the region.

Keywords: foreign trade, market theory, regional development, sustainability, export potential, economic growth, Uzbekistan, global market, investment, diversification.



KIRISH

Zamonaviy dunyo iqtisodiyotida tashqi savdo mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim dvigatellardan biri hisoblanadi. 2020–2025-yillar oralig'ida global iqtisodiy tizim misli ko'rilmagan sinovlarni boshdan kechirdi. 2020-yildagi COVID-19 pandemiyasi ta'sirida jahon savdo zanjirlarining uzilishi mintaqaviy iqtisodiyotlarning tashqi omillarga nisbatan zaifligini ko'rsatib berdi. Biroq aynan bozor nazariyasi qonuniyatlariga muvofiq amalga oshirilgan islohotlar va savdo aloqalarining moslashuvchanligi iqtisodiy barqarorlikni qayta tiklashga xizmat qildi. Barqaror rivojlanish tushunchasi bugungi kunda nafaqat yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining o'sishini, balki ijtimoiy tenglik, ekologik xavfsizlik va tashqi iqtisodiy muvozanatni ham o'z ichiga oladi [1; 14-b.].

Mintaqalarning jahon bozoriga integratsiyalashuv darajasi ularning texnologik yangilanishi va raqobatbardoshligini belgilab beruvchi asosiy indikatorga aylandi. O'zbekiston misolida tashqi savdo strategiyasi 2020-yildan boshlab tubdan o'zgarib, xomashyo eksportidan tayyor mahsulotlar va xizmatlar eksportiga o'tish jarayoni jadallashdi. Mazkur o'zgarishlar bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish zarurligini taqozo etdi. Global raqobat muhitida davlatlarning o'z qiyosiy ustunliklaridan foydalanishi barqaror iqtisodiy o'sishning fundamenti bo'lib xizmat qiladi. Mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda tashqi savdo faqatgina tovar ayirboshlash vositasi emas, balki innovatsiyalar va investitsiyalar oqimini jalb qiluvchi strategik vosita hamdir [2; 45-b.].

2020–2025-yillardagi iqtisodiy dinamika shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni erkinlashtirish mintaqalarning ichki resurslarini safarbar etish va tashqi bozorlardagi yangi imkoniyatlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu davr mobaynida raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning rivojlanishi savdo munosabatlarida yangi paradigma yaratdi. Milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga chuqur integratsiyalashuvi mintaqaviy barqarorlikning tashqi shoklarga nisbatan chidamliligini oshirishni talab qiladi. Shuningdek, xalqaro savdo tashkilotlariga a'zolik va mintaqaviy bloklar bilan hamkorlik savdo to'siqlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu kirish qismida bayon etilgan masalalar maqolaning keyingi bo'limlarida nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqotning dolzarbligi 2025-yilga kelib O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi hajmi keskin oshishi va uning mintaqaviy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi bilan bevosita bog'liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi savdo va mintaqaviy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy fikrlar tarixida doimiy ravishda o'rganib kelingan. Adam Smit va Devid Rikardoning qiyosiy ustunliklar nazariyasidan boshlab, bozor nazariyalari xalqaro savdoning har bir ishtirokchi uchun manfaatli ekanligini isbotlab kelgan. Zamonaviy iqtisodiyotda Pol Krugmanning «**Yangi savdo nazariyasi**» va Maykl Porterning «**Raqobatbardosh ustunlik**» modellari mintaqaviy iqtisodiyotning tashqi bozorlarda qanday qilib barqaror o'rin egallashi mumkinligini tushuntirib beradi [3; 22-b.].

Porterning fikricha, mintaqaning barqaror rivojlanishi nafaqat tabiiy resurslarga, balki innovatsion salohiyat va ixtisoslashgan infratuzilmaga tayanadi. O'zbek olimlaridan N. G'ulomov va A. Tursunov o'z tadqiqotlarida Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi savdo aloqalarini diversifikatsiya qilish va transport koridorlarini rivojlantirishning ahamiyatini yoritgan [4; 56-b.].

Ularning fikricha, mintaqaning dengizga chiqish imkoniyati cheklanganligi sharoitida savdo logistikasini takomillashtirish barqaror o'sishning bosh omilidir. Shuningdek, barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida tashqi savdoning ekologik va ijtimoiy jihatlar ham tadqiqotlar markazida bo'lib kelmoqda. Keyingi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, eksport tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining ortishi mintaqaviy YaIM o'sishiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. 2020–2025-yillarga oid iqtisodiy tahlillar tashqi savdoning mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishdagi rolini ham ta'kidlamogda.

Bozor mexanizmlari orqali resurslarning samarali taqsimlanishi mintaqalarning ixtisoslashuvini rag'batlantiradi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo va barqaror rivojlanish o'rtasidagi korrelyatsiya institutsional muhitning sifatiga bevosita bog'liqdir [5; 89-b.]. Ushbu maqola mavjud nazariyalarni zamonaviy statistik ma'lumotlar bilan to'ldirib, 2020–2025-yillardagi yangi tendensiyalarni o'zida mujassam etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni o'tkazishda tizimli tahlil, qiyosiy iqtisodiy tahlil va ekonometrik modelashtirish usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida 2020–2025-yillar oralig'idagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va tashqi savdo statistikasi olindi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Jahon banki va Xalqaro savdo markazi (ITC) hisobotlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mintaqalarning eksport salohiyatini baholash uchun maxsus indikatorlar tizimi ishlab



chiqildi. Bu tizim eksport diversifikatsiyasi koeffitsiyenti, tashqi savdo ochiqligi darajasi va mintaqaviy barqarorlik indeksini o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlashda dinamik qatorlar tahlili usuli qo'llanildi, bu esa 2020-yildagi inqirozli davr bilan 2024–2025-yillardagi tiklanish davrini solishtirish imkonini berdi. Mintaqaviy barqaror rivojlanish omillarini aniqlashda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg'unlashtirildi. Xususan, bozor nazariyasi doirasida narxlarning shakllanishi, valyuta kursining ta'siri va xalqaro talabning o'zgarishi kabi ekzogen omillar tahlil qilindi. Tadqiqotda, shuningdek, mantiqiy guruhlash usuli orqali tashqi savdoning turli tarmoqlarga (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar) ta'siri alohida ko'rib chiqildi. Forecast (prognozlash) usuli yordamida 2025-yil yakuni bo'yicha kutilayotgan natijalar modellashirildi. Metodologik yondashuvimiz tashqi savdoning mintaqaviy barqarorlikka ta'sirini nafaqat umumiy raqamlarda, balki sifat jihatidan o'zgarishlarda ham ko'rishga imkon beradi. Bu esa xulosa va takliflarning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi [6; 112-b.]. Shuningdek, tadqiqotda xorijiy davlatlarning mintaqaviy rivojlanish tajribasi bilan qiyosiy tahlillar o'tkazilib, mahalliy sharoitga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2020–2025-yillar oralig'ida O'zbekistonning tashqi savdo faoliyati mintaqaviy barqaror rivojlanishning asosiy drayveriga aylandi. 2020-yildagi global inqiroz sharoitida respublikaning tashqi savdo aylanmasi biroz pasaygan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab barqaror o'sish tendensiyasi kuzatildi. Bozor nazariyasi nuqtayi nazaridan, narxlar konyunkturasi va talabning o'zgarishi eksport tarkibini diversifikatsiya qilishga turki berdi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, tashqi savdo aylanmasi 63,5 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 67,2 milliard dollarga yetdi. Eng muhimi, 2025-yil yakuni bo'yicha dastlabki prognozlar va statistik ma'lumotlar tashqi savdo aylanmasining 81,2 milliard dollardan oshishini ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 20,7 foizga o'sish demakdir. Tashqi savdo aylanmasining bunday o'sishi mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Quyida O'zbekistonning asosiy tashqi savdo ko'rsatkichlari dinamikasi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.
O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo ko'rsatkichlari dinamikasi (2023-2025 yy.)

Ko'rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Tashqi savdo aylanmasi (mlrd. dollar)	63.5	67.2	81.2
Eksport hajmi (mlrd. dollar)	24.8	27.2	33.8
Import hajmi (mlrd. dollar)	38.7	40.0	47.4
Sanoat mahsulotlari eksporti ulushi (%)	11.5	11.8	12.4
Xizmatlar eksporti hajmi (mlrd. dollar)	5.2	7.2	9.5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, eksport hajmi 2025-yilga kelib 33,8 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa 2024-yilga nisbatan 24 foizga ko'pdir. Bu o'sish asosan tayyor mahsulotlar va xizmatlar eksporti hisobiga sodir bo'lmoqda. Masalan, xizmatlar eksporti 2023-yildagi 5,2 milliard dollardan 2025-yilda 9,5 milliard dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning tarkib jihatidan takomillashayotganini bildiradi. Sanoat mahsulotlari eksportida to'qimachilik, kimyo mahsulotlari va oziq-ovqat sanoati yetakchilik qilmoqda. 2025-yilda to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2,6 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. Mintaqaviy kesimda Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Navoiy va Andijon viloyatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy ulushga ega. Biroq, Qashqadaryo va Surxondaryo kabi agrar mintaqalarda ham meva-sabzavot eksporti hisobiga barqarorlik ko'rsatkichlari yaxshilanmoqda.

Mintaqaviy savdo oqimlarining integratsiyasi va transport yo'laklarining barqarorlikka ta'siri quyidagi rasmda o'z aksini topgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoning mintaqaviy barqarorlikka ta'siri bir necha kanallar orqali amalga oshmoqda. Birinchidan, eksportdan tushgan tushumlar mintaqaviy budjetlar daromadini oshirib, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ikkinchidan, import tarkibida mashina va asbob-uskunalar ulushining yuqoriligi (jami importning 33 foizidan ortig'i) sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish imkonini bermokda. 2025-yilga kelib import qilingan texnologiyalar hisobiga mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligi 15–20 foizga oshishi kutilmoqda. Uchinchidan, xalqaro hamkorlar bilan tuzilgan savdo shartnomalari mintaqaga



to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirmoqda. Xitoy (21,2%) va Rossiya (16%) asosiy savdo hamkorlari bo'lib qolsa-da, Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasi ham 2025-yilda sezilarli darajada o'sdi. Oltin eksportining jami eksportdagi ulushi 30 foiz atrofida saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, uning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi zaxira sifatidagi roli ortib bormoqda. Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmi 2025-yilning dastlabki oylarida 5,6 foizga oshib, qishloq hududlarida barqaror ish o'rinarini yaratishga yordam berdi. Xizmatlar sohasida turizm va transport xizmatlarining ulushi ortib bormoqda, bu esa mintaqaning xalqaro logistika markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi. Shunday qilib, 2020–2025-yillar oralig'idagi dinamika tashqi savdoning mintaqaviy rivojlanishdagi hal qiluvchi o'rnini to'liq tasdiqlaydi [7; 134-b].

Tadqiqot natijalari tashqi savdoning mintaqaviy barqaror rivojlanishga ta'sirini bir necha strategik yo'nalishlar bo'yicha muhokama qilish imkonini beradi. Birinchidan, bozor nazariyasi asosida tashqi savdoni liberallashtirish mintaqaviy iqtisodiyotda sog'lom raqobatni shakllantirdi. 2020-yilgi inqiroz ko'rsatganidek, savdo aloqalarini diversifikatsiya qilmagan mintaqalar ko'proq zarar ko'rdi. Shuning uchun, 2025-yilga kelib O'zbekistonning jahon bozoridagi o'rnini mustahkamlash uchun faqatgina ma'lum davlatlarga bog'lanib qolmaslik strategiyasi o'z samarasini bermoqda. Ikkinchidan, eksport tarkibidagi o'zgarishlar mintaqaviy ixtisoslashuvning yangi bosqichini ko'rsatmoqda. To'qimachilik klasterlarining muvaffaqiyati bunga yaqqol misoldir. Biroq, muhokama qilinishi kerak bo'lgan asosiy masala — bu importga qaramlikning yuqoriligi va tashqi savdo balansidagi manfiy saldoning saqlanib qolayotganidir. 2025-yilda tashqi savdo balans 13,5 milliard dollar miqdorida manfiy saldo bilan shakllanishi kutilmoqda. Bu holat mintaqaviy barqarorlikka ma'lum darajada xavf solishi mumkin, agar import qilinadigan tovarlar iste'mol tovarlari emas, balki investitsion tovarlar bo'lmasa. Bizning tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, importning katta qismi iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar va elektron savdo platformalari savdo to'siqlarini kamaytirishda inqilobiy rol o'ynadi. Mintaqaviy kichik va o'rta biznes vakillarining global bozorlarga chiqishi osonlashdi. Shuningdek, logistika xarajatlarining yuqoriligi hali ham mintaqaviy raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil bo'lib qolmoqda. Barqaror rivojlanish uchun transport koridorlarini yanada kengaytirish va bojxona tartib-taomillarini raqamlashtirishni davom ettirish zarur [8; 201-b]. Muhokama natijalari shuni tasdiqlaydiki, tashqi savdo orqali mintaqaviy barqarorlikka erishish uchun institutsional islohotlar va bozor infratuzilmasini takomillashtirish birinchi darajali vazifadir. Kelgusi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologik toza mahsulotlar savdosini rag'batlantirish barqaror rivojlanishning yangi paradigmasiga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2020–2025-yillar davomida tashqi savdoning mintaqaviy barqaror rivojlanishdagi o'rni sezilarli darajada oshdi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, bozor nazariyasiga asoslangan savdo siyosati O'zbekiston iqtisodiyotining global shoklardan so'ng tezroq tiklanishiga yordam berdi. 2025-yilga kelib tashqi savdo aylanmasining 81,2 milliard dollarga yetishi iqtisodiy ochiqlik va faol mintaqaviy integratsiyaning natijasidir. Ikkinchidan, eksport diversifikatsiyasi, xususan, xizmatlar va sanoat mahsulotlari eksportining o'sishi mintaqaviy YaHMning barqarorligini ta'minlamoqda. Uchinchidan, barqaror rivojlanish uchun tashqi savdo balansini yaxshilash va import o'rnini bosuvchi yuqori texnologik ishlab chiqarishni rag'batlantirish zarur. Strategik jihatdan, mintaqaviy transport yo'laklarini rivojlantirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh brendlarni shakllantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi kerak. Bozor mexanizmlaridan samarali foydalanish mintaqaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorligini ham kafolatlaydi. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoning rivojlanishi mintaqada kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishning eng samarali yo'lidir. Tavsiya sifatida, eksportni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlarini yanada kengaytirish va xalqaro standartlarni joriy etishni jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida tashqi savdo va barqaror rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq o'rganish uchun mintaqaviy innovatsion ekotizimlarning rolini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi [9; 250-b].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: Tasvir, 2022. – 416 b.
2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
3. Krugman P.R., Obstfeld M., Melitz M.J. International Economics: Theory and Policy. – 11th ed. – Pearson, 2018. – 800 p.
4. G'ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyot va uning istiqbollari. – T.: Iqtisodiyot, 2021. – 320 b.
5. Tursunov A.S. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya va tashqi savdo. – T.: Moliya-iqtisod, 2023. – 215 b.



6. World Bank. Uzbekistan Economic Update. – Washington, DC: World Bank, 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Tashqi savdo aylanmasi hisoboti. 2024. – T., 2025. – 95 b.
8. Abdukarimov B.A. Savdo iqtisodiyoti muammolari. – T.: Iqtisod-moliya, 2016. – 504 b.
9. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817.
10. Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. – London: Strahan and Cadell, 1776.
11. Heckscher E.F., Ohlin B. Interregional and International Trade. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1933.
12. Sodiqov Z.R. Tashqi savdoda nazariyalarning amaliy ahamiyati // *Iqtisodiy taraqqiyot jurnali*. – 2025. – № 2. – B. 45–52.
13. UzDaily.uz. Uzbekistan's Foreign Trade Turnover Exceeds \$81 Billion in 2025. – 2026. [Elektron resurs].
14. International Trade Centre (ITC). Trade Map: Uzbekistan Export Performance. – Geneva, 2024. [Electronic resource].
15. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi. Tashqi savdo aylanmasi 2025: press-reliz. – Navoiy, 2025. – 12 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>